

SO‘ZNING SEHRLI OLAMI: ALISHER NAVOIY IJODIGA NAZAR

Barziyev Oybek Xabibullayevich

**Ilmiy rahbar:, Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)**

Abdurahmonova Odinoxon Hayotbek qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish ingliz tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20427146>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyandasi, mutafakkir Alisher Navoiy ijodining badiiy olami tahlil qilinadi. Maqolada shoirning g‘azal va dostonlarida insonparvarlik, ma‘naviy kamolot, muhabbat va adolat g‘oyalari qanday ifodalanganligi yoritiladi. Shuningdek, Navoiy ijodida ishlatilgan badiiy vositalar, obrazlar tizimi va til uslubi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Mazkur ish orqali Navoiy ijodining nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham adabiyotshunoslik va ma‘naviy rivojlanish uchun ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Xamsa, Hayrat ul-abror, o‘zbek mumtoz adabiyoti, ma‘naviy kamolot, insonparvarlik, adolat, muhabbat, badiiy obraz, axloqiy qadriyatlar

Abstract: This article analyzes the artistic realm of Alisher Navoiy, a great representative of classical Uzbek literature and a prominent thinker. The study highlights how themes of humanism, spiritual perfection, love, and justice are expressed in the poet’s ghazals and epics. Additionally, the literary devices, imagery system, and language style employed in Navoiy’s works are examined from a scholarly perspective. This research demonstrates that Navoiy’s creativity holds significance not only in his own era but also today, contributing to literary studies and the development of moral and cultural values.

Keywords: Alisher Navoiy, Khamsa, Hayrat ul-abror, Uzbek classical literature, spiritual perfection, humanism, justice, love, artistic image, moral values.

Аннотация: В данной статье анализируется художественный мир Alisher Navoiy, выдающегося представителя классической узбекской литературы и мыслителя. Рассматривается, каким образом в его газелях и поэмах выражаются идеи гуманизма, духовного совершенства, любви и справедливости. Кроме того, изучаются литературные приёмы, система образов и стиль языка, использованные в произведениях Навои, с научной точки зрения. Данное исследование демонстрирует, что творчество Навои имеет значение не только для его времени, но и сегодня, внося вклад в литературоведение и развитие моральных и культурных ценностей.

Ключевые слова: Алишер Навои, Хамса, «Хайрат ул-аброр», узбекская классическая литература, духовное совершенство, гуманизм, справедливость, любовь, художественный образ, нравственные ценности.

Alisher Navoiy - nafaqat ulug‘ shoir, balki adib, davlat arbobi va falsafiy tafakkur egasi sifatida ham tarixda mustahkam iz qoldirgan buyuk shaxsdir. 1441-yilda Hirotda tug‘ilgan Navoiy bolaligidan she‘riyatga mehr qo‘ygan, 7–8 yoshdan boshlab turli she‘rlar yozishni boshlagan. U o‘qimishli, bilimli oila sharoitida ulg‘aygan, ilm-fan va madaniyat bilan bolalikdan tanish bo‘lgan. Navoiyning ijodiy va ma‘naviy shakllanishida ustoz Abdurahmon Jomiyning roli beqiyosdir. Navoiy o‘zining ijodiy faoliyatini siyosiy va ma‘muriy vazifalar bilan uyg‘unlashtira oldi. Vazirlik martabasida bo‘lishiga qaramay, u she‘riyatni hech qachon tark etmadi. Shoh Husayn Bayqaro unga katta hurmat bilan qaradi va ilk devonlarining nashr etilishida ko‘mak berdi. Shu davrda shoir

“*Badoye ul-bidoya*” va “*Navodir un-nihoya*” devonlarini yaratdi. 1481–1482-yillarda esa “*Vaqfiya*” asarini yozib, xayrli ishlar va vakf masalasini yoritdi.

Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari alohida o'rin egallaydi. Shoir insonning jamiyat oldidagi mas'uliyatini quyidagi misralar orqali ifodalaydi:

“Odamiy ersang, demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.”
(Alisher Navoiy, “Hayrat ul-abror”)

Adolat va ezgulik masalalari muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu g'oya shoirning quyidagi satrlarida yorqin aks etadi:

“Adl ila olam yuzin obod qil,
Zulm ila el ko'nglini barbod qilma.”
Alisher Navoiy, “Saddi Iskandariy”)

Alisher Navoiy ijodidagi eng yirik yutuq – albatta, “*Xamsa*”dir, 1483–1485-yillarda yaratilgan ushbu besh dostonli asar turkiy tilda to'liq xamsa yaratgan birinchi ish bo'ldi. Bu asar Nizomiy Ganjaviy ijodiga havas sifatida yozilgan bo'lib, shoir kirish qismida:

“*Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig'a panja urmoq*”.

deya o'z niyatini bildiradi. *Xamsa* tarkibida *Hayrat ul-abror*, *Farhod va Shirin*, *Layli va Majnun*, *Sab'ai sayyor* va *Saddi Iskandariy* dostonlari mavjud. Ular orqali Navoiy insonning axloqiy, ijtimoiy va siyosiy mas'uliyatini, shuningdek, ma'naviy kamolot yo'lini yoritadi. *Hayrat ul-abror*da shoirning Yaratganga, tabiatga va insoniyatga bo'lgan munosabati, *Farhod va Shirin*da inson sharafining muhabbat va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liqligi, *Layli va Majnunda* ishq falsafasi betakror uslubda ochiladi. *Sab'ai sayyor* va *Saddi Iskandariy* dostonlari esa siyosiy va shohlik masalalarini birinchi o'ringa qo'yadi.

Xamsadan so'ng Navoiy nasriy va ilmiy asarlarga e'tibor qaratdi. “*Tarixi mulki ajam*”, “*Risolayi muammo*”, “*Xazoyin ul-maoniy*”, “*Majolis un-nafois*”, “*Lison ut-tayr*” va “*Munshaot*” asarlari orqali u o'zbek tilida nasriy janr va muammo janrini rivojlantirdi. Shuningdek, Navoiy 7–8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davr she'rlarini “*G'aroyib us-sig'ar*” devonida jamlab, yoshligidagi g'aroyib ijodini saqlab qoldi. 1490-yillarda shoir shaxsiy yo'qotishlar va siyosiy fitnalar bilan yuzlashdi. Ustozi Jomiy va do'stlarining vafoti, saroydagi mojarolar Navoiyga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Shu davrda u ota va o'g'il urushlarida vositachilik qilib, sulhni ta'minladi. Bu esa uning nafaqat shoir, balki dono va adolatli inson sifatidagi obro'sini oshirdi.

So'nggi yillarida Navoiy ijodiy faoliyatini yanada kengaytirdi. 1498-yilda “*Majolis un-nafois*”ni qayta ko'zdan kechirdi, “*Mantiq ut-tayr*”ga javob yozdi va 1500-yil oxirida “*Mahbub ul-qulub*”ni yakunladi. Shu davrda u shoir sifatida turkiy va forsiy tillarda ilmiy, falsafiy va adabiy asarlar yaratdi. Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda vafot etdi. Butun xalq – shohdan olimlargacha, shoirdan dehqongacha – uning vafoti bilan chuqur qayg'uga cho'mdi. Uning merosi nafaqat turkiy tilda yaratilgan ulkan she'riy va nasriy asarlar, balki xalqning ma'naviy hayotini boyitishdagi hissasi bilan ham abadiy qadrlanadi. “*Xamsa*” esa Navoiy ijodining yuksak cho'qqisi sifatida tarixda o'z o'rnini mustahkamladi. Alisher Navoiyning ijodi nafaqat she'riyat bilan cheklanmagan, balki uning har bir asari zamon ruhini, insonning ichki olamini va jamiyat hayotini aks ettiruvchi chuqur falsafiy fikrlarga boy. Shoirning nasriy asarlari – “*Tarixi mulki ajam*”, “*Xazoyin ul-maoniy*”, “*Majolis un-nafois*” – nafaqat tarixiy va ilmiy manba sifatida, balki ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asarlarda Navoiy har bir insonning axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatini, davlat va shaxsiy hayotdagi adolat prinsiplarini chuqur tahlil qilgan.

Navoiy ijodida eng ajralmas mavzulardan biri – insonning ma’naviy kamoloti va axloqiy barkamolligi. Uning dostonlari va devonlaridagi obrazlar har doim inson ruhining nozik jihatlarini yoritadi. Masalan, “Hayrat ul-abror” dostonida insonning tabiat va Yaratganga bo’lgan munosabati orqali axloqiy kamolotga intilish ifodalanadi. “Farhod va Shirin”da esa inson sharafi muhabbat va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog’liq ekanligi betakror uslubda ochiladi. Shu tariqa, Navoiy har bir asarida insoniy qadriyatlarni, muhabbat, adolat va halollik tamoyillarini o’quvchiga yetkazadi.

Shoirning siyosiy faoliyati ham uning ijodiy hayoti bilan uyg’unlashgan edi. Saroydagi vazirlik vazifalarini bajarish bilan birga, Navoiy davlat boshqaruvidagi adolat va dono qarorlar orqali xalqning hurmatini qozondi. U nafaqat shoir sifatida, balki sulhparvar va dono arbob sifatida ham tanildi. Ayniqsa, ota va o’g’il urushlaridagi vositachiligi, jamiyatdagi nizolarni hal qilishdagi oqilona yondashuvi uning obro’sini yanada oshirdi. Navoiyning oxirgi yillari ham ijoddan uzilib qolmagan. U ilmiy va falsafiy asarlarni yaratishda davom etib, turkiy va forsiy tillarda boy meros qoldirdi. “*Mahbub ul-qulub*”, “Mantiq ut-tayr”ga yozgan javoblari va qayta ko’rilgan “Majolis un-nafois” – uning insoniy qadriyatlar, ma’naviyat va donolikni targ’ib qilgan yuksak asarlari sifatida tarixda qoladi.

Alisher Navoiyning merosi bugungi kunda ham qadriyatini yo’qotmagan. Uning asarlari nafaqat adabiyot va tarixning bir qismi, balki har bir insonning ma’naviy rivojlanishida o’rnak bo’luvchi manba bo’lib xizmat qiladi. “Xamsa” esa Navoiy ijodining cho’qqisi bo’lib, inson ruhining cheksiz imkoniyatlari va ma’naviy kamolotga intilishini yorqin ifodalaydi. Shu tariqa, Alisher Navoiy nafaqat o’z davrining ulug’ shoir va adibi, balki abadiy donolik va axloq me’rosi sifatida tarix sahifalarida yashaydi. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida inson ruhining ma’naviy va axloqiy kamoloti asosiy mavzu sifatida yoritiladi. Doston nomi ham shoirning niyatini ochib beradi: “Hayrat” – ajablanarli, betakror, “Abror” – solih, axloqiy yetuk inson. Shu tariqa, asar ma’naviy kamolotga erishgan inson timsolini yaratadi.

Navoiyning ijodidagi eng markaziy g’oya – insonning axloqiy va ma’naviy kamolotidir. “Hayrat ul-abror” dostonida bu g’oya turli voqealar va obrazlar orqali ochiladi. Har bir voqea o’quvchiga hayotiy dars beradi: halollik, adolat, shukr va sabr tamoyillari orqali inson o’z ruhini yuksaltiradi. Doston qahramonlari orqali shoir shuni ko’rsatadiki, inson o’z maqsadiga faqat axloqiy va halol yo’l bilan yetishi kerak. Shu tariqa, asar o’quvchiga faqat hayotiy bilim bermaydi, balki ma’naviy yo’l-yo’riq sifatida ham xizmat qiladi.

Dostonda tabiat tasviri ham alohida ahamiyatga ega. Navoiy tabiatni nafaqat go’zallik obyekt sifatida, balki inson ma’naviyatini rivojlantirish vositasi sifatida tasvirlaydi. Shoir tabiatdagi tartib, go’zallik va mukammallikni inson ruhiy kamoloti bilan bog’laydi. Shu orqali u o’quvchiga shuni ko’rsatadi: tabiatni sevish, uni hurmat qilish va Yaratganga bo’lgan samimiy munosabat inson axloqiy kamolotining belgisidir. Shuningdek, “Hayrat ul-abror” insonning ijtimoiy mas’uliyatini ham yoritadi. Abror qahramonlari jamiyatda adolat va haqiqatni himoya qiluvchi insonlar sifatida tasvirlanadi. Ular o’z bilim va qobiliyatini boshqalar foydasiga ishlatadi, bu esa Navoiyning ijtimoiy tafakkurini namoyon qiladi. Dostonning badiiy uslubi va didaktik xususiyati bir-birini to’ldiradi. Navoiy so’zning ohangdorligi, jonli va aniq tasvirlari orqali o’quvchining diqqatini ma’naviy va axloqiy mavzularga jalb qiladi. Shu bilan birga, doston tarixiy va ijtimoiy voqealar bilan boyitilgan, bu esa uni nafaqat she’riy asar, balki ma’naviy-tarbiyaviy manbaga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, “Hayrat ul-abror” dostonida Navoiy insonning ichki dunyosi, axloqiy va ma’naviy kamoloti, jamiyatdagi mas’uliyatini mukammal yoritadi. Asar o’quvchiga hayotiy va ma’naviy saboq beradi: halollik, sabr, adolat, tabiatga va Yaratganga hurmat – bular insonni haqiqiy

abroga aylantiradi. Shu jihatlari bilan “Hayrat ul-abror” Navoiy ijodining eng yuksak, axloqiy va falsafiy qadriyatga boy asari hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. *O'zbek adabiyoti tarixi.* – Toshkent: Fan, 1978.
2. Oybek. *Navoiy.* – Toshkent, 1945
3. Alisher Navoiy. *Hayrat ul-abror.* – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
4. Izzat Sulton. “*Alisher Navoiy ijodiy merosi*”.